

Abdulhamid Majidiy (1902-1938)



Abdulhamid Majidiy (1902-1938)

Abdulhamid Majidiy (taxallusi Abutanbal, A. B., Chaqmoq 1902 — Kattaqo'rg'on — 1938) — o'zbek shoiri, dramaturg, adabiyotshunos, jurnalist, pedagog.

Dastlab eski maktabda, so'ngra Kattaqo'rg'onida ochilgan rus-tuzem maktabida ta'lim oldi. «Zarafshon» (1925 — 26), «Ozod Buxoro» (1927—28) gazetalarida muharrirlik qildi. Xorazm viloyat teatrida direktor, adabiy emakdosh (1929—33), Toshkentda «Mushtum» jurnalida (1934—37) ishladi.

1920 yildan matbuotda uning she'rlari bosila boshladi. «Xandon lolalar» (1929), «Qaldirg'och» (1932), «Hangoma» (1937) nomli she'riy va nasriy to'plamlari chop etilgan. «Varqa va Gulshoh», «Otsiz» pesalari bor.

Kattaqo'rg'on shahridagi teatrga Abdulhamid Majidiy nomi berilgan.

2023-09-08 21:08:36